



NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA ZAMON SHAKLLARINING GAPDA IFODALANISH TAMOYILLARI

Halimova Shohista Sharipovna

Buxoro davlat universiteti 1 – kurs magistranti

Annontatsiya: Bilamizki, fe'l orqali ifodalangan harakatning zamon ma'nosi fe'l so'z turkumining turli grammatik shakllari orqali ifodalanadi. Hozirda fe'l zamon shakllari, ularning gapda ifodalanish tamoyillari xususida turli qarashlar mavjud.

Kalit so'zlar: Zamon shakllari, harakatning zamon ma'nosi, grammatik shakllar, mikro va makro matn

Abstract: We know that the tense meaning of the action expressed by the verb is expressed by different grammars of the verb word group. Currently, there are different opinions about the processes of expression in the verb tense and the right sentence.

Key words: Tenses, tenses of action, grammatical forms, micro and macro text.

Mikro va makro matnda zamon shakllari qo'llanganda undagi shakl va xususiyatlar o'zgarib, ma'lum bir zamon ma'nosi boshqa bir zamon ma'nosini ifodalab kelishi mumkin. Bunday hollarda ularni bir - biridan ajratish maqsadida turli payt ravishlaridan, yuklamalardan va turli xil morfologik uslublardan foydalanamiz.[1, 106] *Hozirgina* buyruq oldik (N.Safarov, Navro'z). *Ertalab* uning qo'lida yangi uzuk ko'rib qoldim(O. Umarbekov, Yoz Yomg'iri).Ushbu gaplarda hozirgi zamon ifodalangan bo'lsa, *Bu voqea bo'lganiga o'n besh yildan* oshdi (O. Yoqubov, Ulug'bnok xazinasi) misolida esa o'tgan zamon ifodalangan. Ushbu gaplardagi sintagmatik ma'nolar zamon shakllarining funksional, ya'ni matniy xususiyati bilan bog'liq.

Fel shakllari paradigmatic jihatdan morfologik zamon kategoriyasini ifodalasa, fe'l shaklining matn unsurlari bilan o'zaro ta'sirida kontekstual zamon kategoriyasi hosil bo'ladi. Ayrim hollarda matnda ba'zi vositalar ta'sirida Präsens ya'ni hozirgi zamon kelasi yoki o'tgan zamondagi ish-harakatni ifodalaydi.

[2,2] *Bereits 2500 vor unserer Zeitrechnung finden wir auf Tortafeln eines der ältesten Rezepte der Chemie (H.Zinner. Erzählungen, 128).* Bu misolda payt holi ta'sirida Präsens o'tgan zamon ma'nosini anglatmoqda. Bunday misollarni nutq jarayonida qo'llanashiga turli misollar berish mumkin.

Ertaga Toshkentga ketayapman – Morgen gehe ich nach Taschkent

Ushbu misolda hozirgi zamon shakli kelasi zamoni ifodalayapti.

Gestern kommt mein freund zu mir und ich bin nicht zu Hause

Quyidagi misolda hozirgi zamon o'tgan zamoni ifodalayapti.

Nemis tili fe'l so'z turkumining morfologik, sintaktik va semantik jihatdan tasniflab o'rganish ushbu so'z turkumining keng qamrovda tadqiq etishda asosiy ahamiyat kasb etadi. Bular orasida fe'lning morfologik jihatdan tadqiq etib o'rganilishi juda muhimdir.



Morfologik jihatdan fe'llar quyidagi turlarga bo'lib o'rganiladi: 1. Starke Verben kuchli fe'llar; 2. Schwache Verben-kuchsiz fe'llar; 3. Die Verben präteritopräsentia 4. Die unregelmäßigen Verben-nomuntazam fe'llar. Bulardan farqli o'laroq, o'zbek tilida bunday kategoriyalar mavjud emas.

Die Starke Verben - kuchli fe'llar. Kuchli fe'llarning yasalishi asosan fe'l o'zagidagi unli o'zgarishi bilan, ya'ni shaxs-sonlarda, zamonlarda o'zgarishi bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Kuchli fe'llar hozirgi zamonda tushlanganda o'zagidagi unli tovushlar o'zgaradi.

Er liest ein interessantes Buch, ushbu gapdagi "lesen" fe'li o'zagidagi "e" "i" ga almashgan. O'zbek tilida esa bunday hol kuzatilmaydi. U qiziqarli kitob o'qiyapti.

Bundan tashqari o'zagidagi "a, o" yoki "au" diftongi bo'lgan kuchli fe'llar II va III shaxs birligida umlaut qabul qiladi.. *Du fährst nach Fergana*

O'zagida "-e" unli tovushi bo'lgan kuchli fe'llar II va III shaxs birligida o'zagidagi "-e" unlisi qisqa yoki cho'ziq, "i, ie" ga o'zgaradi. Bunday fe'llarga *treffen-uchratmoq, werfen-tashlamoq, geben bermoq* boshqa fe'llarni misol qilib keltirish mumkin. *Sie trifft mit ihren Freunden*

Kuchli fe'llarni fe'lning uch asosiy qismi bo'lmish: Infinitiv, Imperfekt, Partizip II da o'zgarishi bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Kuchli fe'llar Imperfekt da hech qanday qo'shimcha olmaydi. Masalan: *lesen- las -gelesen, fahren -fuhr-gefahren*

2. Schwache Verben-Kuchsiz fe'llar - ushbu doiradagi fe'llar asosan zamonlarda shaxs-sonlarda ifodalanganda ularni ajratib olishimiz mumkin. Ushbu fe'llarning hozirgi zamon shakli ham fe'l o'zagiga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi: Singular-I-e, II-st, III-t; Plural-I-en, II-t, III-en

Masalan : *machen, lieben* fe'llarini oladigan bo'lsak

Ich mache- du machst- Er macht Wir machen – Ihr macht – Sie machen

Ich liebe – du liebst- er liebt Wir lieben-Ihr liebt-Sie lieben

Yana o'zagi: **d, tm, gn, ffh, chn** kabi undosh tovushlar bilan tugagan kuchsiz fe'llar II va III shaxs birligida ham, hamda II shaxs ko'pligida "-e" qo'shimchasini olib keladi. Bunday toifadagi fe'llarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

"öffnen-ochmoq, begegnen-uchratmoq, antworten-javob bermoq, warten-kutmoq, leiten-boshqarmoq, ordnen-tartibga keltirmoq". Kuchsiz fe'ldan o'tgan zamon shaklini yasashda asosan fe'l o'zagiga **-(e)te** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilamiz. Kuchsiz fe'llarning bundan tashqari o'ziga xos maxsus guruhi ham mavjud. Ushbu guruhga: *"kennen-bilmoq, nennen-atamoq, rennen-musobaqalashmoq"* kabi ko'pgina fe'llarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu fe'l kuchli fe'lga o'xshab o'zagidagi "-e" unlisini, Imperfekt va Partizip II da "-a" unlisiga almashtiradi va Imperfekt da -te, Partizip II da -t, qabul qiladi: *kennen-kannte-gekannt; denken-dachte-gedacht*.

Shunday qilib, zamoniga ko'ra fe'l shakli matn tarkibida bir tomondan nutq momenti bilan, boshqa jihatdan esa muayyan obyektiv zamon bilan bog'liq bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. G'ani Zikrillayev “Ruh va Til”, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, Toshkent-2018
2. Yarash Ro'ziyev “Nemis tili zamon shakllarining publisistik matnlarda pragmatik maqsadda qo'llanilishi” (Центр научных публикаций, Вух DU uz) 2,2, 2020 y
3. Yarash Ro'ziyev “The usage of tense forms of German” (Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali) 2022 y
4. Ganievna K. N., Muhammadislom R. Psychological approach in teaching methods //Достижения науки и образования. – 2017. – №. 4 (17). – С. 101-102.
5. Shavkatovna S. N., Ganiyevna K. N. Using podcasts for enhancing listening and speaking skills in EFL classes //Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. – 2022. – С. 248-251.
6. Razokovna O. M. et al. English Learning And Vocabulary Growing Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 10628–10632-10628–10632.